**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**“KELISHILDI”**
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
________________________
“14” __08__ 2020 yil

# AKADEMIK LITSEYLARDA O‘ZBEK TILI FANIDAN NAMUNAVIY O‘QUV DASTUR

(Umumta’lim fanlar)

Лойиха

**TOSHKENT – 2020**

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2020-yil 14-avgustdagi № 3-son majlis bayoni bilan ma’qullangan hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**O‘zbek tili fanidan namunaviy o‘quv dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha ijodiy guruh tarkibi**

| T/r | **Ism-sharifi** | **Ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi** |
|---|---|---|
| 1 | Raupova Laylo Rahimovna | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori |
| 2 | Adizov Bekjon Qo‘chchiyevich | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi direktori |
| 3 | Eshpo‘latova Saodat Maxmatovna | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi |
| 4 | Keldiyeva Nargiza Boltayevna | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi |
| 5 | Tajiyeva Zuhra Kamalbayevna | TDIU qoshidagi akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi |
| 6 | Matkarimova Fotima Sultonovna | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi Rus tili va adabiyot fani o‘qituvchisi |

Лойиха

# КИРИШ

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘zbek tili fanidan 10-11-sinf o‘quv dasturi kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilgan Davlat ta’lim standartining B1, B1+ darajasi talablari asosida tuzildi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilari Davlat ta’lim standartining mazkur darajalari talablariga javob berishlari shart.

“O‘zbek tili” fani ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ikkinchi til sifatida o‘qitiladi. Bunda kommunikativ tamoyil ustuvor bo‘lib, ta’lim mazmunida asosiy e’tibor o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlar vositasida o‘quvchilarda kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida og‘zaki va yozma erkin muloqot yuritishga qaratilgan fanga oid hamda tayanch kompetensiyalarning elementlarini ham shakllantirib boriladi.

Uzluksizlik va uzviylik tamoyilidan kelib chiqib, 5-9-sinflarda o‘zbek tilining so‘z tarkibi, so‘z yasalishi, so‘z turkumlari, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi, so‘z birikmasi hamda gap tuzish qonuniyatlarini o‘rgatish yuzasidan nazariy bilimlar berish rejalashtirilgan. Ushbu maqsadda dasturda har bir nutqiy mavzu doirasida beriladigan leksik (tayanch so‘zlar va birikmalar), grammatik minimum (so‘z shakllari va grammatik bilimlar) ajratib berilgan. O‘quv dasturi 5-sinfda leksika, grammatika, muomala odobi, adabiy o‘qish, 6-9-sinflarda leksika, grammatika, adabiy o‘qish, ish qog‘ozlarini yozishni shakllantirishga qaratilgan holda tuzildi. 10-11-sinflar o‘quv dasturida esa ushbu bilimlarni mustahkamlash asosida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma bog‘lanishli nutqini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Buni amalga oshirish uchun 10-sinfda sintaksis bo‘limiga doir nazariy bilimlar berish, so‘z birikmasi, sodda va qo‘shma gap, gap tuzilishi bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qildirish, 11-sinfda nutq uslublari va matn turlari bo‘yicha bilimlar berish orqali o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga erishish rejalashtirildi.

10-11-sinflar o‘quv dasturiga kiritilgan yangiliklardan biri, adabiy o‘qish materiallarining sistemalashtirilgani va kengaytirilgani bo‘lib, o‘quvchilarni taniqli o‘zbek yozuvchi va shoirlarining hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumotlar bilan tanishtirish, ularning eng sara asarlaridan o‘quvchining yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos parchalarni berish orqali ularni o‘zbek adabiyoti namunalari bilan yaqindan tanishtirish, nutqini o‘stirish, o‘zbek adabiy tili me’yorlarini singdirish ko‘zda tutilgan. O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida sinfdan tashqari o‘qish uchun ham soatlar ajratildi. O‘quv dasturida har bir nutqiy mavzu bo‘yicha o‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid va tayanch kompetensiyalarning elementlari nutqiy mavzuning mazmunidan kelib chiqib namuna sifatida taqdim etildi.

Quyida B1, B1+ darajalar uchun shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalarning elementlari berildi:

-mavjud axborot manbalaridan foydalanib (internet, telefon, kompyuter, elektron pochta) ma’lumot almashish;

-kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish.;

-mustaqil o‘rganish orqali bilimini oshirib borish;

-o‘zini tuta olish, to‘g‘ri so‘z bo‘lish, o‘zining xatosini tushunish;
-shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy kamolotga intilish;
-o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish;
-davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
-farzandlik va o‘quvchilik, fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish;
-kasblarning mohiyatini tushunish;
-mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala madaniyatiga rioya qilish;
-yurish-turishda madaniy me’yorlarga jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish;
-badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish;
-milliy va umuminsoniy qadriyatlarni farqlay olish;
-xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash;
-kundalik faoliyatda turli formula, chizma, grafik va diagrammalar tushunish va undan foydalanish;
-inson mehnatini yengillashtiradigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish.
-axborot manbalaridan foydalanib (internet, kompyuter) ma’lumot almashish, foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;
-bilimini mustaqil oshirib borish, o‘zining qobiliyatini namoyon qila olish;
-sport bilan muntazam shug‘ullanish;
-badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish;
-tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish;
-o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish;
-aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarini tuza olish;
-fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish.

## O‘zbek tili fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari

O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limda o‘zbek tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi:

-o‘quvchilarning o‘qish va mehnat jarayonida, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikrini bayon eta olish, eshitilgan axborotni idrok etish, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish;

-o‘zbek adabiyotining eng sara namunalari, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy hayoti, jahon madaniyatiga va milliy madaniyatga hissa qo‘shgan buyuk allomalar ijodiy merosini o‘rganish orqali milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish malakasini rivojlantirishdan iborat.

## 1-BOSQICH

### O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:

axborot va ma’lumotlarni tinglab tushunadi;

ijtimoiy va kasbga yo‘naltirilgan mavzulardagi ommabop suhbatlarni, bahs-munozaralarni tushunadi, suhbatlashadi;

matn mazmunini to‘liq so‘zlab beradi;

Ijodkor

shaxsiy qiziqishlari va kasbiga oid axborot va ma’lumotlarni tinglab tushunadi;

matnni kengaytirib, qisqartirib so‘zlab beradi;

o‘qilgan va ko‘rilgan asar haqidagi taassuroti va unga munosabatini bayon qiladi;

o‘zbek tilining milliy-madaniy leksikasini nutqda to‘g‘ri qo‘llaydi;

sodda va qo‘shma gaplarni, qo‘shma gaplarni bog‘lovchi vositalarni biladi;

o‘zbek tilining so‘zlashuv, badiiy, ommabop, rasmiy nutq uslublarini biladi;

o‘rganilgan ish qog‘ozlarini to‘g‘ri yozadi;

90-100 so‘zdan iborat matn asosida diktant yoza oladi, 2-2,5 bet hajmida ijodiy matn tuzadi.

murakkablashgan sodda va qo‘shma gaplarni, qo‘shma gaplarni bog‘lovchi vositalarni biladi;

o‘zbek tilining so‘zlashuv, badiiy, ommabop, rasmiy nutq uslublarini biladi;

ma’muriy ish qog‘ozlari, mutaxassislikka oid ichki hujjatlar, hisobotlarni to‘g‘ri yozadi.

Kasbiy mavzularda taqdimot qila oladi, o‘qilgan asar va film haqidagi taassuroti va munosabatini bayon qila oladi;

Ma’muriy ish qog`ozlari ,mutaxassislikka oid ichki hujjatlar, hisobotlar va boshqa yozma topshiriqlarni imlo qoidalari asosida to‘g‘ri yoza oladi

Kasb-hunarga oid lug‘at minimunini, o‘zbek tilining milliy-madaniy leksikasini, ma’nodosh shakldosh, uslubiy bo‘yoqdor so‘zlarni nutqda to‘g‘ri qo‘llay oladi.

Mutaxassislik sohasidagi matnlar va suhbatlar mazmunini, atamalar ma’nosini tushuna oladi;

Murakkablashgan sodda va qo‘shma gaplarni, qo‘shma gaplarni bog‘lovchi vositalarni farqlay oladi;

Mutaxassislikka oid mavzularda ma’ruzalar qila oladi.

## O‘zbekiston – jannatmakon o‘lka (4 soat)

**Leksika**: Ona-Vatan, tinchligi, ozodligi, shon-shuhrati, kamol topmoq, asrab-avaylamoq, muqaddas burch, porloq istiqbol, asriy orzular, diplomatik aloqalar, foydali qazilmalar, jannatmakon o‘lka kabi tayanch so‘zlar va birikmalar

**Grammatika:** O‘tilganlarni takrorlash. O‘zbek tilining orfoepik va orfografik me’yorlari.

**Adabiy o‘qish:** Xalq og‘zaki ijodi. “Shiroq”afsonasi

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

## Oilam-tayanchim, faxrim (4 soat)

**Leksika**: Mening oilam, oilamiz an’analri, ahil-mehribon, o‘zaro ishonch, ota-onaga hurmat, oila iqtisodi, oila ahil bo‘lsa, omad o‘zi keladi kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari. Sodda gap va ularning turlari.

**Adabiy o‘qish:** Hamid Olimjonning hayoti va ijodiy faoliyati. “Xayolimda bo‘lding uzun kun” she’ri .

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18**

**O‘zbekiston yoshlari (4 soat)**

**Leksika**: Davr sadosi, yoshlar haqida ko‘rsatuvlar va eshittirishlar, barkamol shaxslar, keng imkoniyatlar kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika: Sodda yig‘iq va sodda yoyiq gaplar.**

**Adabiy o‘qish:** Asqad Muxtorning hayoti va ijodi. “Bir tup o‘rik” she’ri.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18**

**Do‘stlarim va qiziqishlarim (4 soat)**

**Leksika**: Do‘stlarim, do‘stga sadoqat, g‘amxo‘r va samimiy, puxta bilim olish, qiziqqan sohalarimiz, tanlovda ishtirok etmoq, imkoniyatlardan foydalanish kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Bir bosh bo‘lakli gaplar va ularning turlari.

**Adabiy o‘qish:** ErkinVohidovning hayoti va ijodi. “Ona tilim o‘lmaydi” she’ri.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18**

**Kitoblar dunyosi (4 soat)**

**Leksika:** Kitob, yaqin, do‘st, oilamizning, sarguzasht, sevimli, mashg‘uloti, sinf kutubxonasida, ibrat olaman, jahon adabiyoti, shaxsiy kutubxona, to‘ldirib, boraman kabi tayanch so‘z va birikmalar.

**Grammatika:** Ikki bosh bo‘lakli gaplar.

**Adabiy o‘qish:** Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning hayoti va ijodiy faoliyati. “Bolalik” qissasidan parcha.

**Sinfdan tashqari o‘qish:** Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasi

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**Sevimli kitobim. O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” qissasi (4 soat)**

**Leksika**: “Tilla baldoq”, “Haqqush”, “Kaltakesakning dumi”, “Gilam paypoq”, “O‘ris bolaning oyisi”, hikoyalari;

**Grammatika: Uyushiq bo‘laklar**

**Adabiy o‘qish: “Ikki eshik orasi”** romanidan parcha

**Adabiyotlar:1,2,14, 15, 16, 17, 18, 19, 20, 24**

**O‘zbekiston olimlari (4 soat)**

**Leksika**: Iqtidor, iste’dod, qobiliyat, tinimsiz mehnat, ishtiyoq, tirishqoqlik, samarasini ko‘rish, maqsadga erishish kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika: Qo‘shma gap va ularning turlari.**

**Adabiy o‘qish:** O‘zbek akademik olimlari va ularning hayot yo‘li haqida ma’lumot.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

### Iqtidorli yoshlar (2 soat)

**Leksika**: Iqtidor, iste'dod, qobiliyat, tinimsiz mehnat, ishtiyoq, tirishqoqlik, samarasini ko'rish, maqsadga erishish kabi tayanch so'z va birikmalar.

**Grammatika:** Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar.

**Adabiy o'qish:** Ibrohim Rahimning "Ishning ko'zi" asaridan parcha.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

### Men yoqtirgan gazeta (4 soat)

**Leksika**: Ommaviy axborot vositalari, matbuot, gazeta, jurnal, maqola, muxbir, xabarlar, internet kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Bog'langan qo'shma gaplar. Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar .

**Adabiyo'qish**: "Hayot bilan hamqadam". Publitsistik matn.

**Sinfdan tashqari o'qish:** Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

### Qiziqarli ko'rsatuvlar (2 soat)

**Leksika:** Televideniye, televideniye vatani, teledasturlar, teleminora, qiziqarli ko'rsatuvlar, jurnalist, dolzarb mavzu, ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, munosabat bildirish kabi nutqiy qurilmalar.

**Grammatika:** Zidlov va ayiruv munosabatli qo'shmagaplar.

**Adabiy o'qish:** G'afur G'ulomning hayoti va ijodiy faoliyati. "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasidan parcha.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

### Tabiat va ekologiya (4 soat)

**Leksika**: Tabiat va ekologiya, tabiatni asrash, atrof-muhitni ifloslantirmaslik, isrofgarchilik va loqaydlik, tabiatni muhofaza qilmoq, tabiat hodisalari, ekologik muammolar; atrof-muhitni muhofaza qilish barchaning burchi.Tabiatni asrash jamiyat kelajagi va mamlakat taraqqiyoti uchun nihoyatda zarur kabi so'z birikmalari va gaplar.

**Grammatika:** Ergashgan qo'shma gap.

**Adabiy o'qish:** O'lmas Umarbekov hayoti va ijodiy faoliyati. "Qizimga maktublar" qissasidan parcha.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

### San'at va madaniyat (4 soat)

**Leksika**: Madaniyat va san'at, musiqa va musiqachilik, raqs san'ati, amaliy san'at turlari, mumtoz qo'shiqchilik, milliy raqs dastalari, mashhur namoyandalar. Har bir xalq, avvalo, o'z milliy madaniyati va san'atini rivojlantirishga e'tibor qilishi kerak kabi nutqiy qurilmalar.

**Grammatika:** Tobe gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar.

**Adabiy o'qish:** Zulfiyaning hayoti va ijodiy faoliyati. "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" she'ri.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

### Yaxshi fazilat – inson ko‘rki (4 soat)

**Leksika**: Xushmuomalalik va xushchehralik, kamtarlik, mehnatsevarlik, ma’naviy go‘zallik, axloq-odob gulshani, insoniy fazilatlar, ma’naviy komillik, ma’naviyat bo‘stonlari, hayot qoidalari. Kamtarga kamol, manmanga zavol kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.

**Adabiy o‘qish:** O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodiy faoliyati. “Laylak” hikoyasi

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

### Mehnat – kelajak poydevori (4 soat)

**Leksika**: Mehnat, mehnatsevarlik, mehnat – kelajak poydevori. Mehnat baxt keltirar. Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroyli kabi so‘zlar, so‘z birikmalari va nutqiy qurilmalar.

**Grammatika:** Qo‘shma gap turlarining  o‘zaro ma’nodoshligi.

**Adabiy o‘qish:** Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodiy faoliyati. Abdulla Qodiriy haqida xotiralar .

**Sinfdan tashqari adabiy o‘qish:** Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romani.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

### Milliy liboslar (4 soat)

**Leksika**: Milliy liboslar, do‘ppi, atlas, adras, chopon, milliy va zamonaviy liboslar, ko‘rik-tanlovlar, katta baho berilmoqda kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Ko‘chirma gaplar, ularda tinish belgilarining qo‘llanishi.

**Adabiyo‘qish:** Publitsistik maqolalardan namunalar.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16,17, 18, 19, 20**

### Dunyo taomlari (4 soat)

**Leksika**: Dunyo taomlari, novvoychilik, o‘ziga xosligi, pazandachilik, pishiriqlar, tayyorlamoq, milliy taomlar kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** O‘zlashtirma gaplar. Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirish .

**Adabiy o‘qish:** Karim Mahmudovning “Qiziqarli pazandalik” kitobidan matnlar

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

### O‘zbekiston havo yo‘llari (4 soat)

**Leksika**: Havo kemalari, havo yo‘llari, aerodrom, aerovokzal, janubiy, shimoliy, eng yirik aviatsiya korxonasi, Toshkent xalqaro aeroporti kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Qo‘shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

**Adabiy o‘qish:** Abdulla Oripovning hayoti va ijodiy faoliyati. “Tilla baliqcha” she’ri .

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**O‘zbekiston temiryo‘llari (4 soat)**

**Leksika**: O‘zbekiston temir yo‘llari, Aksiadorlik jamiyati, yirik, kompaniya, loyiha-konstruktorlik, yagona temir yo‘l tarmog‘i, Navoiy-Uchquduq, Toshkent-Marg‘ilon, yetakchi o‘rinni egallamoq kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** O‘tilganlarni takrorlash.

**Adabiy o‘qish:** Muhammad Yusufning hayoti va ijodiy faoliyati. “O‘zingdan qo‘ymasin xalqim” she’ri.

**Sinfdan tashqari o‘qish.** Saida Zunnunova she’rlaridan

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**2-bosqich (72 soat)**

**O‘quvchilar o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar:**

axborot va ma’lumotlarni tinglab tushunadi;

ijtimoiy va kasbga yo‘naltirilgan mavzulardagi ommabop suhbatlarni, bahs-munozaralarni tushunadi, suhbatlasha oladi;

shaxsiy qiziqishlari va kasbiga oid axborot va ma’lumotlarni tinglab tushunadi;

matnni kengaytirib, qisqartirib so‘zlab beradi;

o‘qilgan va ko‘rilgan asar haqidagi taassuroti va unga munosabatini bayon qiladi.

o‘zbek tilining milliy-madaniy leksikasini nutqda to‘g‘ri qo‘llaydi;

sodda va qo‘shma gaplarni, qo‘shma gaplarni bog‘lovchi vositalarni biladi;

o‘zbek tilining so‘zlashuv, badiiy, ommabop, rasmiy nutq uslublarini biladi;

o‘rganilgan ish qog‘ozlarini to‘g‘ri yozadi;

90-100 so‘zdan iborat matn asosida diktant yoza oladi, 2-2,5 bet hajmida ijodiy matn tuzadi.

murakkablashgan sodda va qo‘shma gaplarni, qo‘shma gaplarni bog‘lovchi vositalarni biladi;

o‘zbek tilining so‘zlashuv, badiiy, ommabop, rasmiy nutq uslublarini biladi;

ma’muriy ish qog‘ozlari, mutaxassislikka oid ichki hujjatlar, hisobotlarni to‘g‘ri yozadi.

Kasbiy mavzularda taqdimot qila oladi, o‘qilgan asar va film haqidagi taassuroti va munosabatini bayon qila oladi;

Ma’muriy ish qog‘ozlari, mutaxassislikka oid ichki hujjatlar, hisobotlar va boshqa yozma topshiriqlarni imlo qoidalari asosida to‘g‘ri yoza oladi;

Kasb-hunarga oid lug‘at minimunini, o‘zbek tilining milliy-madaniy leksikasini, ma’nodosh shakldosh,uslubiy bo‘yoqdor so‘zlarni nutqda to‘g‘ri qo‘llay oladi.

Mutaxassislik sohasidagi matnlar va suhbatlar mazmunini, atamalar ma’nosini tushuna oladi;

Murakkablashgan sodda va qo‘shma gaplarni, qo‘shma gaplarni bog‘lovchi vositalarni farqlay oladi;

Mutaxassislikka oid mavzularda ma’ruzalar qila oladi.

### O‘zbekiston – suveren davlat (4 soat)

**Leksika**: Sanoatni rivojlantirish, fermer xo‘jaligi, mehnatkash, dunyo ham jamiyati, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNESKO, diplomatik aloqalar, mamlakat mavqei, qadimiy va navqiron shaharlar, mehmondo‘st xalq, eksport va import, foydali qazilmalar, jahon bozori kabi tayanch so‘zlar va so‘z birikmalari.

**Grammatika:** O‘tilganlarni takrorlash. So‘z birikmasi va gap

**Adabiy o‘qish:** Alisher Navoiyning hayoti va ijodi, ruboiylari, tuyuqlari.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

### O‘zbekistonda ta’lim tizimi(2 soat)

**Leksika**: Ta’lim tizimi va turlari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, universitet, institut, oliy o‘quv yurti, institutga kirmoqchiman, ma’naviy kamolot kabi tayanch so‘zlar va so‘z birikmalari.

**Grammatika:** Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari. Darak va so‘roq gaplar.

**Adabiy o‘qish:** Alisher Navoiyning “Hayratul-abror” dostonidan parcha.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

### Ajdodlar merosi(4 soat)

**Leksika**: Fan, texnika, bilim olmoq, ko‘p o‘qimoq, ilmli, ilmsiz, qomusiy, olimlar, taraqqiyot, rivojlanish, alloma, kashfiyot, bebaho, poydevor, xazina, boy hayotiy tajriba kabi so‘zlar va so‘z birikmalari.

**Grammatika:** Buyruq-istak gap. His-hayajon gap.

**Ish yuritish qog‘ozi:** Ariza.

**Adabiy o‘qish:** Bobur ruboiylari va tuyuqlari.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

### Bobur ijodiyoti(4 soat)

**Leksika: Z.M.Bobur hayoti, “**Boburnoma”da shaharlar, shaxslar tasviri, tabiat tasviri, “Mubayyin al-zakot”, “Muxtasar**”,** ruboiylar, tuyuqlar

**Grammatika:** Gap bo‘laklari: ega, kesim

**Adabiy o‘qish**: “Boburnoma” da shaxslar tasviridan parcha

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

### Xalqimizning asl farzandlari (4 soat)

**Leksika**: Kasb-hunar, o‘qituvchi, iqtisodchi, huquqshunos, hamshira, kasb tanlash, ustoz va shogirdlik, ustozga ta’zim, ilmli inson, hunar, jasur, qo‘rqmas kabi so‘z va so‘z birikmalari.

**Grammatika**: Gap va matn. Ularning farqli tomonlari.

**Ish yuritish qog‘ozi:** Tarjimayi hol

**Adabiy o‘qish:** Sharof Rashidovning hayoti va ijodiy faoliyati.

**Sinfdan tashqari o‘qish:** Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**Kasbim – faxrim(4 soat).**

**Leksika**: Mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyi, sadoqatli, tanilgan, olqishga sazovor bo‘lgan, baxtli, ulug‘lanadi, qadrlanadi kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Matnning turlari. Monologik matn.

**Ish yuritish qog‘ozi:** Tushuntirish xati.

**Adabiy o‘qish:** Halima Xudoyberdiyevaning hayoti va ijodi. Lirikasi.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**Xalq amaliy san’ati (4 soat).**

**Leksika**: San’at, san’atkor, duradgorlik, ganch ustasi, zargarlik, dutor, rubob, tanbur, qo‘shiq, mayin kuy, shodlik, kattalar, cholg‘u asboblari kabi so‘zlar va so‘z birikmalari.

**Grammatika:** Dialogik matn.

**Ish yuritish qog‘ozi:** Maktub (xat).

**Adabiy o‘qish:** Cho‘lponning hayoti va ijodi.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**Teatr va kino(2 soat).**

**Leksika**: O‘zbek teatri, kino san’ati, O‘zbekiston milliy teatri, o‘zbek kinosi ustalari, avvalgi va hozirgi kino, san’at ustalari, yosh san’at ustalari kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Matnni kengaytirish va qisqartirish.

**Ish yuritish qog‘ozi:** Taklifnoma

**Adabiy o‘qish:** Said Ahmadning hayoti va ijodiy faoliyati, hikoyalari

**Sinfdan tashqari o‘qish:** Daniel Defo. “Robinzon Kruzo” asarini so‘zlab berish.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**Milliy madaniy markazlar (4 soat).**

**Leksika**: Madaniy, milliy, markazlar, xalqaro aloqalar, hamdo‘stlik munosabatlari, tadbirlar, millatlararo, hamkorlikda o‘tkaziladi, milliy bayramlar kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Tinish belgilar.

**Ish yuritish qog‘ozi:** Tavsifnoma.

**Adabiy o‘qish:** Odil Yoqubovning hayoti va ijodiy faoliyati. “Muzqaymoq” asaridan parcha .

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**Jahon adabiyoti namoyandalari (4 soat).**

**Leksika**: Jahon adabiyoti namunalari, namoyandalar, asarlari, asarda ko‘tarilgan masalalar, taqqoslamoq, Chingiz Aytmatov, Rasul Hamzatov, Mark Tven kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Vergul va tirening ishlatilishi.

**Adabiy o‘qish:** Rasul Hamzatovning hayoti va ijodi. Lirikasi

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**Vatanga sadoqat (4 soat).**

**Leksika**: Vatanni sevmoq, himoya qilmoq, burch, vatanparvarlik, xizmat qilmoq, Vatanga sadoqat kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Qo‘shtirnoqning ishlatilishi.

**Adabiy o‘qish:** Ozod Sharafiddinovning hayoti va ijodiy faoliyati. “O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasi.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**Bizning mahalla (4 soat)**

**Leksika**: Vatanni sevmoq, vatan mahalladan boshlanadi, mahalla posponi, burch, vatanparvarlik, xizmat qilmoq, mahalla fuqarolar yig‘ini, Vatanga sadoqat kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** qavsning ishlatilishi.

**Adabiy o‘qish:** Turob To‘laning hayoti va ijodiy faoliyati. ”Do‘nan” hikoyasi

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi (4 soat).**

**Leksika**: Ekologiya, salomatlik, toza havo, ifloslantirmaslik, sog‘lom turmush, O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, rivojlanmoqda, yosh mutaxassislar, keng tarmoqli kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Ikki nuqta va ko‘p nuqtaning ishlatilishi.

**Adabiy o‘qish:** Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodiy faoliyati.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**O‘zbekiston sporti (4 soat).**

**Leksika**: O‘zbek sporti, O‘zbekiston sport ustalari, yosh sportchilarning shuhrati, sportda shuhrat qozonganlar, O‘zbekiston bayrog‘i, yuqori ko‘tarmoq kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Tinish belgilarining qo‘shaloq ishlatilishi.

**Adabiy o‘qish:** Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissadan parcha

**Sinfdan tashqari o‘qish:** Tohir Malik“Odamiylik mulki” asaridan parcha

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**O‘zbekistonda turizm (4 soat).**

**Leksika**: O‘zbekistonning qadimiy shaharlari, sayyohlar, ko‘hna, muzey shaharlar,Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, sayohat, lol qoldirmoq, qiyoslab bo‘lmaydi kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Nutq uslublari. So‘zlashuv uslubi.

**Ish yuritish qog‘ozi:** Reklama (e’lon).

**Adabiy o‘qish:** Shukrulloning hayoti va ijodiy faoliyati. “Ota vasiyati” ertagi

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab sayohat (4 soat).**

**Leksika**: Buyuk ipak yo‘li, Sharq va G‘arbni bog‘lovchi yo‘l, hashamatli ustunlar, muzey-shahar, me’morchilik obidalari, ulug‘vor madrasalar, maqbaralarni ta’mirlash, sayyohlarning taassurotlari, barpo etilgan, peshtoqlardagi yozuvlar, karvonsaroy, oq yo‘l, xarita bo‘ylab sayohat,tuyalar karvoni, kumush tanga, mol ayriboshlash kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Badiiy uslub.

**Adabiyo‘qish:** Herman Hessening hayoti va ijodiy faoliyati. “Oy shu’lasi”(Bo‘ri) hikoyasi.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**Tadbirkorlik faoliyati (4 soat).**

**Leksika**: Tadbirkorlik, qiziqmoq, rivojlanmoq, tadbirkorlar, hissa qo‘shmoq, kengaytirmoq, hunar o‘rganmoq, xususiy korxona, tadbirkor bo‘lmoqchiman, biznes reja kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:**Publitsistik uslub.

**Adabiyo‘qish:** Rahmat Fayziy “Hazrati inson”.

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**Kelajakka yo‘l (4 soat).**

**Leksika**: Kasblar, hunar egallash, kasbga qiziqish, tadbirkor, fermer, bank xodimi, ixtirochi, dizayner, san’atkor, shifokor, malaka oshirmoq, chet ellarda ta’limni davom ettirmoq kabi so‘z va birikmalar.

**Grammatika:** Rasmiy uslub.

**Adabiyo‘qish:** Saida Zunnunovaning hayoti va ijodiy faoliyati. She’rlari

**Adabiyotlar: 15; 30**

**Sinfdan tashqari o‘qish:** Dolzarb mavzudagi publitsistik maqolalar sharhi

**Adabiyotlar: 1, 2, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20**

**O‘QUV REJASIDA AJRATILGAN SOAT MIQDORI VA MAVZULARI BO‘YICHA TAQSIMOTI**

**1-bosqich**

| № | Fan bo‘limlari va mavzular | Umumiy yuklama (soatlarda) | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Hammasi | Auditoriyadagi o‘quv yuklamasi | | | | | Mustaqil |
| | | | Jami | Nazariy | Amaliy | Seminar | Kurs ishi | |
| 1 | O‘zbekiston – jannatmakon o‘lka | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| 2 | Oilam tayanchim, faxrim | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| 3 | O‘zbekiston yoshlari | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| 4 | Do‘stlarim va qiziqishlarim | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| 5 | Kitoblar dunyosi | 5 | 4 | | 4 | | | 1 |
| 6 | Sevimli kitobim O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” qissasi | 5 | 4 | | 4 | | | 1 |

Лойиха

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **7** | O‘zbekiston olimlari | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **8** | Iqtidorli yoshlar | 4 | 2 | | 2 | | | 2 |
| **9** | Men yoqtirgan gazeta | 5 | 4 | | 4 | | | 1 |
| **10** | Qiziqarli ko‘rsatuvlar | 4 | 2 | | 2 | | | 2 |
| **11** | Tabiat va ekologiya | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **12** | San’at va madaniyat | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **13** | Yaxshi fazilat – inson ko‘rki | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **14** | Mehnat - kelajak poydevori | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **15** | Milliy liboslar | 5 | 4 | | 4 | | | 1 |
| **16** | Dunyo taomlari | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **17** | O‘zbekiston havo yo‘llari | 5 | 4 | | 4 | | | 1 |
| **18** | O‘zbekiston temir yo‘llari | 5 | 4 | | 4 | | | 1 |
| | **Nazorat ishlari:** | 4 | 4 | | 4 | | | |
| **Jami:** | | **102** | **72** | | **68** | | | **30** |

## 2-bosqich

| **№** | **Fan bo`limlari va mavzular** | **Umumiy yuklama (soatlarda)** | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **Hammasi** | **Auditoriyadagi o‘quv yuklamasi** | | | | | **Mustaqil ish** |
| | | | **Jami** | **Nazariy** | **Amaliy** | **Seminar** | **Kurs ishi** | |
| **1** | O‘zbekiston – suveren davlat | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **2** | O‘zbekistonda ta’lim tizimi | 4 | 2 | | 2 | | | 2 |
| **3** | Ajdodlar merosi | 5 | 4 | | 4 | | | 1 |
| **4** | Bobur ijodiyoti | 5 | 4 | | 4 | | | 1 |
| **5** | Xalqimizning asl farzandlari | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **6** | Kasbim – faxrim | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **7** | Xalq amaliy san’ati | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **8** | Teatr va kino | 4 | 2 | | 2 | | | 2 |
| **9** | Milliy madaniy markazlar | 5 | 4 | | 4 | | | 1 |
| **10** | Jahon adabiyoti namoyandalari | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **11** | Vatanga sadoqat | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **12** | Bizning mahalla | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **13** | O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **14** | O‘zbekiston sporti | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **15** | O‘zbekistonda turizm | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **16** | Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab sayohat | 6 | 4 | | 4 | | | 2 |
| **17** | Tadbirkorlik faoliyati | 5 | 4 | | 4 | | | 1 |
| **18** | Kelajakka yo‘l | 5 | 4 | | 4 | | | 1 |
| | **Nazorat ishlari:** | 4 | 4 | | 4 | | | |
| | | **103** | **72** | | **72** | | | **31** |

## FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yo‘rug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi.-T: O‘zbekiston, 2017-y
2. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T:”O`zbekiston”, 2017.
3. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – T.: O‘zbekiston, 1995. – 24 b.
4. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.: «Ma’naviyat”.-T.: 2008.-176 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining 1997- yil 29-avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining 1997- yil 29- avgustdagi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida” gi Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining1999-yil 16 -avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 390-sonli qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 21-maydagi “2004-2009-yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida”gi PF-3431.
9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirli va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010-yil 1-iyuldagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitiladigan umumta’lim fanlari hamda oliy ta’limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash to‘g‘risida” gi 6/2/4/1-sonli qo‘shma hay’at majlisi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomilashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-1875-sonli qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-sonli qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6- apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining2017-yil 15- martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori.
13. Mengliyev B., Xoliyarov O‘. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
14. Round up. Oxfort University.2015
15. Essential grammar in use. R. Murphy. 2013.
16. Hamroyev M. A..Ona tili. -T. 2008.
17. Anarbekova A., Mirzayeva Sh.. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.– T.:. Noshir nashr, 2011.
18. Rasulov R., Mirazizov A.. O‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun o‘quv qo‘llanma). Fan va texnologiya, Turon-iqbol. 2015.
19. Rafiyev A.. O‘zbek tili.– T.:.O‘zbekiston. 2016.
20. Mirvaliyev S.,. Shokirova R, O‘zbek adiblari. – T.:Fan. 2007.
21. Karimov B., Abdiyev H.. XX asr o‘zbek hikoyasi antologiyasi. – T.: O‘zbek milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2011, 2016.
22. O‘zbek xalq ertaklari 1,2,3- tom. Davr.– T.: 2017
23. To‘xtaboyev X. Xrestomatiya. 2 jild. Sariq devni minib. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2015.
24. X.S. Muxitdinova, G.Z. Muxamedjanova, F.S. Talipova, R.B. Eshbayeva 11-sinf O‘zbek tili darslik- DAVR NASHRIYOTI. Toshkent – 2018

**Internet saytlari :**

pedagogika.websib.ru/node/29825).
dtm.uz
xtv.uz, @Ustoz_uz
htt://t.me/muallimlar
uzedu.uz

Лойиха